



📞 Tel.: 1377
✉️ E-mail: office@smartbank.uz
🌐 Web: www.smartbank.uz
📍 Adress: 100011, Toshkent shahri, Botir Zakirov kochasi, 2A-uy

«SMART BANK» AJ DA «XARIDLAR UCHUN iPhone» AKSIYASINI O'TKAZISH QOIDALARI

Toshkent — 2024 yil

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o'rirlarda O'zR FK) 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu qoidalarda ishtirok etish shartlari, ishtirok etishga haqli shaxslarni, qatnashish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar tartibini, g'oliblarni aniqlash va sovrinni topshirish tartibi, shuningdek, "Smart bank" tomonidan tashkil etilgan "Xaridlar uchun iPhone" aksiyasini (keyingi o'rirlarda—Aksiya deb yuritiladi) tashkil etish va o'tkazishning boshqa muhim shartlari bayon etilgan.

1.2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yin hisoblanmaydi hamda ishtirokchilar aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq hech qanday mulkiy risklarni o'z zimmalariga olmaydilar.

1.3. Aksianing maqsadi: Smartbank brendining ommaviyligini oshirish va kobeyj kartalar chiqarish hajmini oshirish.

2. AKSIYA TASHKILOTCHISI HAQIDA MA'LUMOT

2.1. Aksiya tashkilotchisi (keyingi o'rirlarda—Tashkilotchi):

«Smart bank» aksiyadorlik jamiyati

STIR: 310 123 822

Yuridik manzili: 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 2A-uy

3. AKSIYA O'TKAZILISH MUDDATI VA JOYI

3.1. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazilmoqda.

3.2. Aksiya muddati: Toshkent vaqt bilan (UTC +5) 2024-yil, 1-dekabr, 00:01 dan, 2025-yil, 24-yanvar, soat 23:59 ga qadar davom etadi va quyidagi ikki bosqichni o'z ichiga oladi:

1-bosqich: 01.12.2024 sanasidan 24.12.2024 gacha;

2-bosqich: 01.01.2025 sanasidan 24.01.2025 gacha.

3.3. Yutuqli o'yin muddati va Aksiya g'oliblariga sovg'alarni topshirish Aksiya grafigi bo'yicha aniqlanadi

3.4. Mazkur Qoidalarda ko'rsatilgan barcha muddatlar Toshkent vaqt bilan bo'yicha hisoblanadi.

4. AKSIYA ISHTIROKCHILARI:

4.1. Aksiya ishtirokchilari (keying o'rirlarda—Ishtirokchi deb yuritiladi) deb muomala layoqatiga ega, balog'at yoshiga (18 yosh) yetgan, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy istiqomat qilib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda mazkur Qoidalarga binoan Aksiyaning barcha shartlarini amalga oshirgan, SmartBank ilovasining identifikatsiyalangan foydalanuvchilari topiladi.

4.2. 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ilovaning identifikatsiyalangan Foydalanuvchilari Aksiyada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan o'rnatilgan tartiblarga binoan ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiylari tomonidan yozma ravishda taqdim etilgan ruxsatnomaga asosan ishtirok etishlari mumkin.

4.3. Aksiyada ishtirok etish uchun ushbu Qoidaning 4.1. va 4.2. bandlarida ko'rsatilgan talablarni qondirgan shaxslar ishtirok etishi mumkin, quyidagilar bundan mustasno:

4.3.1. Tashkilotchining xodimlari;

4.3.2. Tashkilotchi xodimlarining yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, o'g'li, qizi, onasi, otasi, aka/ukasi, opa/singlisi, buvasi, buvisi);

4.3.3. Fuqaroligi bo'Imagan shaxslar va/yoki chet el fuqarolari.

4.4. Mazkur Qoidalarning 4.3 bandiga mos kelmaydigan shaxslar qantashuvi holatlari aniqlanganda, mazkur qoidabuzarlik ularni Aksiyadan chetlashtirish uchun asos deb topiladi.

4.5. Aksiyada ishtirok etish Foydalanuvchining mazkur Qoidalar bilan roziligini anglatadi.

5. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA TARTIBI

5.1. Aksiyada ishtirok etish uchun, ishtirokchilar Smart bank kobeyj kartasiga ega bo'lishlari yoki yangi buyurtma qilishlari hamda Smart bank kartasi orqali mahsulotlar va/yoki xizmatlar uchun aksiya amal qilish muddati davomida minimal 3 000 000 (uch million) so'm miqdorida to'lovlarni amalga oshirishlari talab qilinadi. To'lovlar ishtirokchilar xohishiga ko'ra bank Mobil ilovasi yordamida, hamda savdo shahobchalarida karta bilan amalga oshirilishi mumkin.

6. AKSIYANING SOVRIN JAMG'ARMASI

6.1. Aksiyaning sovrin jamg'armasi 20 ta iPhone 16 Pro smartfonlaridan tashkil topgan bo'lib, quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- Birinchi bosqichda — 10 ta iPhone 16 Pro smartfonlari;
- Ikkinchi bosqichda — 10ta iPhone 16 Pro smartfonlari.

6.2. Sovrirlarning rangi, to'plami yoki boshqa xususiyatlari reklama materiallarida ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin.

6.3. Tashkilotchi Aksiyada taqdim etilayotgan sovrinlarining sifati uchun javobgar emas.

6.4. Sovrinlarning pul ekvivalentlarini berish, shuningdek, boshqa Sovrinlarga almashtirish ko'zda tutilmagan.

7. AKSIYA G'OLIBLARINI ANIQLASH TARTIBI

7.1. Aksiya g'oliblari tasodifiy raqamlar generatori orqali, ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan Aksianing barcha shartlarini, Aksiya jadvalida ko'rsatilgan tegishli muddatlarda bajargan Ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlovdan va maxsus kompyuter dasturi Random.org dan foydalangan holda aniqlanadi.

7.2. Har bir ishtirokchi faqat bir marta g'olib bo'lishi mumkin.

8. SOVRINLARNI OLİSH TARTIBI

8.1. G'oliblar SmartBank mobil ilovasida maxsus push-xabarnoma va/yoki banking rasmiy veb-saytida chiqarilgan e'lon orqali xabardor qilinadi. Shu bilan birga, bank xodimi g'olib bilan telefon qo'ng'iroq'i orqali aloqaga chiqadi. Sovrinlarni topshirish bank ofisida amalga oshiriladi. Agarda, g'olib joylashuvi Toshkent shahridan tashqarida bo'lsa, sovrin yetkazib berish xizmatlari orqali o'z egasiga yetkaziladi.

8.2. Ushbu Qoidalarning 6.1.-bandida ko'rsatilgan sovrinlar g'oliblarga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (Passport, ID karta va shularga tenglashtirilgan hujjatlar) taqdim qilingandagina topshiriladi.

8.3. Agar G'olib natija e'lon qilingan kundan boshlab 1 (bir) kalendar oyi ichida sovrinni olmagan yoki olish niyatini bildirmagan bo'lsa yoki, sovrin talab qilinmagan hisoblanadi va O'yin G'olibining Sovrinni olish huquqi yo'qoladi. Belgilangan muddatda Sovrinni olishdan bosh tortgan yoki uni olish niyatini bildirmagan o'yin g'olib ushbu muddatdan keyin talab qilinmagan Sovrinni Tashkilotchidan talab qilishga haqli emas.

8.4. G'oliblar aksiya sovrinidan voz kechgan yoki uni talab qilmagan taqdirda, Tashkilotchi ushbu Sovrin uchun o'yinni qayta o'tkazadi va ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda yangi g'olibni aniqlaydi.

8.5. Aksiya tashkilotchisi Aksiya shartlarini bajarish uchun Aksiya g'olib bo'lgan Ishtirokchi haqidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilish huquqiga ega.

8.6. Sovrinlar Aksiya yutuqli o'yini o'tganidan keyin 1 (bir) kalendar oydan kechiktirmay beriladi. Ish kunlari dushanbadan jumagacha bo'lgan kunlar hisoblanadi. Sovrinlar dushanbadan jumagacha soat 9:00 dan 13:00 gacha va soat 14:00 dan 18:00 gacha topshiriladi (O'zbekiston Respublikasida belgilangan dam olish va bayram kunlaridan tashqari).

8.7. Sovrinlarni berish joyi va manzili: 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 2A-uy

8.8. Aksiya g'olibи quyidagi hollarda Aksiya mukofotini olish huquqidan mahrum bo'ladi:

- Aksiya g'olibи ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha talab va shartlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi;
- Aksiya g'olibining Sovrinni olishdan bosh tortish niyati haqida og'zaki yoki yozma xabarnomasi;
- G'olibning Xizmatdagi ma'lumotlari va fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari o'rtasidagi tafovutlar;
- barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etishni rad etish va Sovrinni ro'yxatdan o'tkazish va topshirish uchun tegishli hujjatlarni imzolashni rad etish;
- g'olib o'zining shaxsiy ma'lumotlarini Tashkilotchiga taqdim etishni rad etishi;
- Sovringa egalik huquqi G'olibga tegishli sovrin berilgan paytdan boshlab o'tadi.
- Aksiya g'olibи Aksiya mukofotini olish huquqini uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli emas.

9. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

9.1. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- ishtirokchilarning o'z aybi yoki G'olib va/yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'Imagan boshqa sabablarga ko'ra Sovrinni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olmaganlik/o'z vaqtida olmaslik;
- Ishtirokchilar tomonidan aksiyada ishtirok etish va Sovrirlarni olish bilan bog'liq shartlar va harakatlarning bajarilmasligi/o'z vaqtida bajarilmasligi;
- Ishtirokchilarni ushbu Qoidalar shartlari bilan tanishtirmaganligi;
- Internet-provayderlar, aloqa operatorlari ishi, pochta, kuryerlik yoki boshqa xizmatlarning har qanday xatolari va buning natijasida pochta va elektron jo'natmalar olinmagan yoki kechikib kelgan, yo'qolgan yoki shikastlangani;
- Sovrin talab qilinmagan yoki uni olish rad etilgan taqdirda, Aksiya g'olibи tomonidan Sovrirlarni olinmaganligi;
- Aksiya doirasida Ishtirokchilar tomonidan to'liq bo'Imagan va/yoki noto'g'ri aloqa va/yoki boshqa ma'lumotlar, shaxsiy ma'lumotlar taqdim etilishi;
- Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi bilan bog'liq har qanday xarajatlari va yo'qotishlari;

- Aksiya g'olibining Sovrin berilgan joyga borishi va qaytishi bilan bog'liq har qanday xarajatlarni to'lash;
- Sovrinlardan foydalanish natijasida Sovrin egasining sog'lig'iga (hayotiga), uchinchi shaxslarning mulkiga, sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar;
- favqulodda holatlarining yuzaga kelishi (fors-major);
- Sovrinning xizmatga yaroqliligi va sifati bo'yicha nizo kelib chiqqan holda. Sovrin sifati va ularning kafolatli xizmati uchun javobgarlik ularning ishlab chiqaruvchisi zimmasida.

9.2. Aksiya ishtirokchilari o'zlarining mobil telefon raqamlari Aksiya davrida kiruvchi qo'ng'iroqlar va kiruvchi matnli xabarlar uchun mavjud bo'lishini ta'minlash uchun javobgardir.

- Aksiyaning barcha Ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq har qanday xarajatlar uchun mustaqil ravishda javobgardirlar.
- Agar Ishtirokchi tomonidan insofsiz harakat fakti aniqlansa, Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etishdan chetlatiladi va agar u Sovrinni yutib olsa, o'yin natijasi bekor qilinadi.
- Aksiyada ishtirok etishning haqqoniyligi baholash Tashkilotchi tomonidan Tashkilotchida mavjud bo'lgan texnik imkoniyatlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalarni hisobga olgan holda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
- Aksiyada ishtirok etishning halolligini baholash Tashkilotchi tomonidan Tashkilotchida mavjud bo'lgan texnik imkoniyatlardan kelib chiqib hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalarni hisobga olgan holda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

10. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

10.1. Ishtirokchi ushbu Qoidalarning shartlarini qabul qilib, aniq ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi, shuningdek, o'z manfaatlarini ko'zlab, Tashkilotchiga va uning vakolatli shaxsiga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va hajmda Ishtirokchi taqdim qilgan shaxsiy ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash, uzatish, foydalanish, saqlashga rozilik beradi.

10.2. Aksiyada qatnashish va Aksiya doirasida Sovrinni olish uchun Ishtirokchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda Tashkilotchiga ushbu Ofertada (Qoidalarda) belgilangan ma'lumotlarni (jumladan, uning shaxsiy ma'lumotlarini) taqdim etishi shart.

10.3. Aksiyada ishtirok etish orqali har bir Ishtirokchi shu orqali Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchi taqdim etgan ma'lumotlardan, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, marketing va/yoki amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa reklama faoliyati

bilan bog'liq shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishga roziligini tasdiqlaydi, xususan, Sovrin olgan taqdirda, o'z ismi-sharifi, familiyasi, fotosurati, intervyu yoki u to'g'risidagi boshqa materiallardan reklama/marketing maqsadlarida bepul foydalanish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida (ismi va fotosurati), har qanday bosma, audio va video materialarda, ommaviy axborot vositalari bilan intervyularni e'lon qilish, shuningdek, ma'lumot, xabarlar (shu jumladan reklama) va hokazolarni yuborish huquqiga ega, bunda foydalanish hududi, vaqt va usuli bo'yicha hech qanday cheklanmagan va bunday foydalanish Tashkilotchi tomonidan hech qanday tarzda qoplanmaydi.

10.4. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan Kompaniya, shuningdek Tashkilotchi faqat Aksiyani o'tkazish maqsadlarida foydaliladi. Boshqa barcha holatlarda, Kompaniyaning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati qo'llaniladi.

11. AKSIYA ISHTIROKCHILARINI XABARDOR QILISH TARTIBI

11.1. Aksiya ishtirokchilarini uni amalga oshirish shartlari va tartibi haqida xabardor qilish Smart bank rasmiy sahifalarda, ijtimoiy tarmoqlarda, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarida reklama postlarini joylashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

11.2. Ushbu Aksiya haqida bat afsil ma'lumotlar, shuningdek, Aksiya qoidalari Tashkilotchining www.smartbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

11.3. Aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotlarni +998 (78) 777-13-77 telefon raqami orqali ham olish mumkin.

11.4. Aksiya muddatidan oldin to'xtatilgan, uning shartlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda tegishli ma'lumotlar www.smartbank.uz veb-saytida joylashtiriladi.

11.5. Tashkilotchi turli xil aloqa vositalaridan foydalangan holda ishtirokchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga chiqishi mumkin, shu jumladan (cheklovsiz) pochta jo'natmalari, Ishtirokchining elektron pochta (elektron pochta) manziliga pochta jo'natish, mobil telefoniga (SMS-xabar berish) tegishli ma'lumotlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida (25.12.1998-yil 723-l-son) reklama tushunchasiga mos keladigan ma'lumotlarni Tashkilotchining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarish maqsadida yuborishi mumkin.

12. BOSHQA SHARTLAR

12.1. Ushbu Qoidalalar Aksiyaning butun muddati davomida Tashkilotchi tomonidan bir tomonlama tartibda, smartbank.uz saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali o'zgartirishi va/yoki to'ldirishi mumkin.

12.2. Tashkilotchi quyidagi hollarda Aksiyani muddatidan oldin tugatish yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega:

- Fors-major holatlari;

- Qonunchilik yoki me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlar;
- Texnik nosozliklar;
- Tashkilotchining faoliyati to'xtatilishi yoki tugatilishi;
- Ishtirokchilar tomonidan jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablari buzilganligi holatlari aniqlanganda;
- Tashkilotchining ixtiyoriga ko'ra boshqa holatlar.

12.3. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha holatlarda Aksiya Tashkilotchisi va Ishtirokchilari/G'oliblari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

12.4. Tomonlarning javobgarlik choralari, shuningdek nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq belgilanadi.

12.5. Ushbu Qoidalalar Aksiya muddati tugagunga qadar amal qiladi.